



UXK RUSUMLI TOZALASH AGREGATINI KONSTRUKSIYASINI O'ZGARTIRISH

Toirov Ulug'bek Tolibjon o'g'li

Farg'ona politexnika instituti asistenti

Odiyaxon Jo'rayeva

Farg'ona politexnika instituti talabasi

Farida Ahadova

Farg'ona politexnika instituti talabasi

Annotatsiya: PTK larda chigitli paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalashda ishlatiladigan UXK rusumli tozalash uskunasi ta'minlovchi valiklaridan birini pichoqchali barabanga o'zgartirish.

Kalit so'zlar: Chigitli paxta, iflosliklar, ta'minlovchi valik, qoziqchali baraban.

Chigitli paxta tolasini chigitidan ajratish jarayonida ifloslik va begona qo'shilmalarning tola sifatiga ta'sir qilmasligi uchun ular quritish-tozalash va tozalash bo'limlari ichiga o'rnatilgan tozalash uskunalarida ajratib olinadi.

Chigitli paxtani har xil iflosliklardan tozalash uchun kerakli uskunalar turlarini tanlashda ularning fizik-mexanikaviy xususiyatlarini (o'lchamlari, kelib-chiqishi, paxtaga ilashish darajasi) nazarga olish katta ahamiyatga ega.

Chigitli paxtani har xil aralashmalardan tozalash uchun, ularning (aralashmalarning) fizik-mexanikaviy xususiyatlarini nazarga olish hisobiga texnologik uskunalar turi tanlab olinadi. Masalan: yirik iflosliklarni chigitli paxtadan ajratishda arrachali barabanlar seksiyasidan foydalaniladi.

Yirik aralashmalarni chigitli paxtadan ajratish texnologiyasida asosan foydalaniladigan ish organlari bir xil bo'lgani bilan ularni (arrali baraban, kolosniklar, cho'tkalar) uskuna ichida o'rnatish usullari har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli yirik iflosliklardan tozalash mashinalarining tuzilishlari ham bir-biridan farq qiladi.


Hozirgi davrda paxta tozalash korxonalarida quritish va tozalash bo'limlarida “Oqim yo'nalishli” uskunalar komplekslaridan foydalanilib, ular chigitli paxtani iflos aralashmalardan tozalashda birdan-bir qulay va zamonaviy texnologiya bo'lib hisoblanadi. Haqiqatda ham “oqim yo'nalishli” uskunalar kompleksi “UXK” rusumli bir-nechta seksiyalardan iborat bo'lib, yordamchi vositalar: xom ashyoni tashish, uzatish va yig'ishtirish, transportlaridan foydalanishga ehtiyoj qolmaydi. Shu sababli chigitli paxtaning fizikaviy-texnologik xususiyatlariga salbiy ta'sir etuvchi kuchlar turlarini kamaytiradi. Bu o'z navbatida paxta tozalash korxonasining asosiy mahsuloti bo'lib hisoblanadigan tola sifatini saqlashga va chigitning jarohatlanishi yoki ezilishini pasaytirishga imkon yaratadi

UXK-agregat seksiyalari uch xil bo'lishi mumkin: UXK.01-boshlang'ich seksiyasi, UXK.02-o'rta seksiyasi, UXK.03-oxirgi seksiya.

Bularning bir-biridan farqi: UXK.01-seksiyasida ta'minlovchi valiklar o'rnatilgan bo'lsa, UXK.03-seksiyasida tozalangan paxta mashinadan chiqadigan joyiga yopiq nov o'rnatilgan.

UXK.02 seksiyasi-ikki tarafidan qo'shimcha seksiyalar ulashga moslashtirilgan bo'lib, shu o'rta seksiya hisobiga, agregatdagi seksiyalar sonini ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin. Qiyin tozalanadigan paxtaning seleksion navlarini tozalashda, agregatdagi seksiyalar soni $6 \div 7$ gacha ko'paytiriladi.

EN-078 qoziqchali bloklar orqali (G) UXK seksiyalarini (A, B, V) bir-biri bilan ulash



negizida tuzilgan UXK majmuasi

TAKLIF. Bizga ma'lumki UXK uskunasi 1-seksiyasida ta'minlovchi valiklar joylashgan. Ta'minlovchi valiklarning vazifasi chigitli paxtani qoziqchali barabanga bir tekisda ta'minlab beradi. Bizning taklifimiz ta'minlovchi valiklarning birini pichoqchali barabanga o'zgartirish. Ta'minlovchi valik va pichoqchali baraban chigitli paxtani qoziqchali barabanga bir tekisda, titkilangan holda uzatib beradi. Buning natijasida uskunaning ishlash jarayonida hosil bo'ladigan tiqilishlar oldini olinadi, uskunaning ishchi qismlari ishlash muddati uzayadi, eng asosiysi tolada hosil bo'ladigan nuqsondorliklar kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Tillaev M. T Babadjanov M. A, "Paxtani dastlabki ishash texnologiyasi va jixozlari". Ma'ruza kursi. TTYeSI. Toshkent. 2009.

2. Tillaev M.T. Bobojonov M.A., Gapparova M.A. "Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jixozlari" fanidan laboratoriya ishlari to'plami. Uslubiy qo'llanma. TTESI. Toshkent.2009.

3. Babadjanov M. A. "Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jixozlari fanidan chigitli paxtani hamda tolni tozalash qismlaridan talabalarda amaliy malaka ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma, TTYeC. Tochkent. 2009.

4. «O'z'paxtasanoat» uroshmasi. «Paxtani dastlabki qayta ishlash» o'quv qo'llanma. Toshkent, «